

**V.I.ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSC.02/30.12.2019.FM.86.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

KARIMOV KAMOLIDDIN TO‘YCHIBOYEVICH

**UCH O‘LCHOVLI FAZODA SINGULYAR KOEFFITSIENTLI ELLIPTIK
VA ARALASH TIPDAGI DIFFERENSIAL TENGLAMALAR UCHUN
CHEGARAVIY VA SPEKTRAL MASALALAR**

01.01.02 – Differensial tenglamalar va matematik fizika

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Doktorlik (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата докторской (DSc) диссертации

Contents of the Doctoral (DSc) Dissertation Abstract

Karimov Kamoliddin To‘ychiboyevich

Uch o‘lchovli fazoda singulyar koeffitsientli elliptik va aralash tipdagi differensial tenglamalar uchun chegaraviy va spektral masalalar..... 3

Каримов Камолиддин Туйчибоевич

Краевые и спектральные задачи для дифференциальных уравнений эллиптического и смешанного типов с сингулярными коэффициентами в трехмерном пространстве..... 27

Karimov Kamoliddin Tuychiboevich

Boundary-value and spectral problems for differential equations of elliptic and mixed types with singular coefficients in three-dimensional space 51

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 55

**V.I.ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSC.02/30.12.2019.FM.86.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

KARIMOV KAMOLIDDIN TO‘YCHIBOYEVICH

**UCH O‘LCHOVLI FAZODA SINGULYAR KOEFFITSIENTLI ELLIPTIK
VA ARALASH TIPDAGI DIFFERENSIAL TENGLAMALAR UCHUN
CHEGARAVIY VA SPEKTRAL MASALALAR**

01.01.02 – Differensial tenglamalar va matematik fizika

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Fizika-matematika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2017.3.DSc/FM100 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Farg'ona davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz(rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (<http://kengash.mathinst.uz>) va Ziyonet Axborot ta'lim portalida (<https://ziyonet.uz>) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Urinov Axmadjon Kushakovich

fizika-matematika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Ashurov Ravshan Radjabovich

fizika-matematika fanlari doktori, professor

Sitnik Sergey Mixaylovich

fizika-matematika fanlari doktori, professor

Mirsaburov Miraxmat

fizika-matematika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Samarqand davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti huzuridagi DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil 12-noyabr soat 16:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko'chasi. Tel.: (+99871)-207-91-40, e-mail: uzbmath@umail.uz. Website: www.mathinst.uz).

Dissertatsiya bilan V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika Institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (189 - raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100174, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Universitet ko'chasi. Tel.: (+99871)-207-91-40).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil 28 - oktyabr kuni tarqatildi.
(2024 yil 28 - oktyabrdagi 2-raqamli reestr bayonnomasi).



O'.A. Roziqov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
raisi, f.-m.f.d., akademik

J.K. Adashev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
ilmiy kotibi, f.-m.f.d., katta ilmiy xodim

A. Azamov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
huzuridagi Ilmiy seminar raisi, f.-m.f.d.,
akademik

KIRISH (doktorlik dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Hozirgi vaqtda dunyoning ko'plab ilmiy maktablarida singulyar koeffitsientli differensial tenglamalar uchun lokal va nolokal shartli chegaraviy masalalar nazariyasi jadal rivojlanmoqda. Chegaraviy masalalar nazariyasiga bunday e'tibor tasodifiy emas, chunki singulyar koeffitsientli differensial tenglamalar matematik fizika, kimyo va boshqa sohalarining turli muhim muammolarida qo'llanilishi topilgan. Xususan, ular neft qatlamlari holatini o'rganishni matematik modellashtirishda, yer osti suvlarini filtrlashda, murakkab tuzilishga ega bo'lgan ob'ektda issiqlik va massani uzatishda, simlardagi elektr tebranishlarda, g'ovak muhit bilan o'ralgan kanalda suyuqlik harakatida, tebranish jarayonlarida, issiqlik o'tkazuvchanlikda, diffuziya, filtratsiya va boshqa hodisalarda katta ahamiyaga ega. Shunday qilib, nazariy tadqiqotlarni mantiqiy rivojlanishi, singulyar koeffitsientli xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun masalalarni yechishning umumiy nazariyasi va usullari yo'qligi hamda muhokama etilayotgan tenglamalarning amaliyotda keng qo'llanilayotganligi, bunday tipdagi tenglamalar uchun masalalarni tadqiq etishning dolzarbligiga asos bo'ladi.

Dunyoda hozirgi vaqtda xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun lokal va nolokal chegaraviy masalalarni spektral analiz usuli yordamida o'rganish dolzarb hisoblanadi. Shu bilan birga, har xil tipdagi xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun spektral masalalarni o'rganishga qiziqish ortdi. Spektral nazariya bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlarni shartli ravishda ikki yo'nalishga bo'lish mumkin. Bulardan birinchisi chegaraviy masalalar yechimlarining yagonaligi haqidagi teoremlarni isbotlash bo'lsa, ikkinchisi esa ko'rib chiqilayotgan chegaraviy masalalarning xos qiymatlari va xos funksiyalarini topishdir. Bu yo'nalishlardagi ilmiy izlanishlar hozirda jadal davom etmoqda va rivojlanmoqda. Shu munosabat bilan, elliptik va aralash tipdagi singulyar koeffitsientli differensial tenglamalar uchun chegaraviy va spektral masalalarni o'rganish maqsadli ilmiy tadqiqot hisoblanadi.

Mamlakatimizda hozirgi vaqtda amaliy ahamiyatga ega bo'lgan ilmiy yo'nalishlarga e'tibor kuchaytirildi, xususan, mamlakatimiz olimlari tomonidan ikkinchi va yuqori tartibli xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun chegaraviy masalalarni yechishning samarali usullarini izlash va tadqiq qilishga alohida e'tibor qaratildi. Differensial tenglamalar va matematik fizika, funksional analiz, dinamik sistemalar nazariyasi, shuningdek, amaliy matematika va matematik modellashtirish bo'yicha xalqaro standartlar darajasida ilmiy tadqiqotlar olib borish tadqiqotchilar faoliyatining asosiy vazifalari va faoliyat yo'nalishlari etib belgilandi¹. Qarorning ijrosini ta'minlashda ilmiy natijalardan ilm-fanning turdosh sohalarida foydalanish maqsadida uch o'lchovli fazoda singulyar koeffitsientli differensial tenglamalar uchun chegaraviy va spektral masalalarni tadqiq qilish muhim ahamiyatga ega.

¹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 18-maydagi "O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining yangidan tashkil etilgan ilmiy-tadqiqot muassasalari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 292-son qarori.

Mazkur dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7 fevraldagi PF-4947-son «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni, 2019 yil 9 iyuldagi PQ-4387-son «Matematika ta'limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi va 2020-yil 7-maydagi PQ-4708-son «Matematika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. «Matematika, mexanika va informatika» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi².

Singulyar koeffitsientli xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun chegaraviy va spektral masalalarni tadqiq qilish va ularni yechish usullarini ishlab chiqish yo'nalishida xorijiy mamlakatlarning yetakchi ilmiy markazlari va universitetlarida, jumladan, Nyu-York va Texas universitetlarida (AQSh), Turin universitetida (Italiya), Afina universitetida (Gretsiya), Santyago-de-Kompostela universitetida (Ispaniya), Upsala universitetida (Shvetsiya), Yaqin sharq universitetida (Turkiya), Moskva, Novosibirsk, Sankt-Peterburg, Orlov, Qozon, Kamchatka va Samara davlat universitetlarida (Rossiya), Belgorod davlat milliy tadqiqot universitetida (Rossiya), Rossiya FA Sibir bo'limining Matematika institutida (Rossiya), Rossiya FA Kabardin-Bolqor ilmiy markazining Amaliy matematika va avtomatlashtirish institutida, Qozog'iston matematika va matematik modellashtirish institutida hamda Qozog'iston milliy universitetida (Qozog'iston), Armaniston milliy FA fizik tadqiqotlar institutida, Armaniston davlat pedagogika universitetida (Armaniston), Tomsk milliy tadqiqot politexnika universitetida, Moskva fizika-texnika institutida, Sterlitamak davlat pedagogika akademiyasida (Rossiya); Belarus davlat universitetida (Belarusiya), Tojikiston Milliy universiteti ilmiy-tadqiqot institutida (Tojikiston) va boshqa xorijiy ilmiy muassasalarda keng qamrovli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Jahon miqyosida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida bir qator dolzarb masalalar yechilgan bo'lib, jumladan, quyidagi ilmiy natijalarga erishilgan: aralash tipdagi differensial tenglamalar uchun chegaraviy masalalarni yechish nazariyasi ishlab chiqildi (Turin universiteti, Italiya); aralash elliptiko-giperbolik tipdagi tenglamalar uchun chegaraviy masalalar o'rganildi (Upsala universiteti, Shvetsiya; Rossiya FA Kabardin-Bolqor ilmiy markazining Amaliy matematika va

² Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi: Springer Proceedings in Mathematics & Statistics, <http://www.springer.com/series/10533>; Oliy o'quv yurtlari yangiliklari. Matematika, <http://kpfu.ru/science/nauchnye-izdaniya/ivrm>; Umumrossiya matematika portal, <http://www.mathnet.ru>; Differensial tenglamalar elektron jurnali, <https://ejde.math.txstate.edu>; Differensial tenglamalar jurnali, <https://www.springer.com/journal/10625> va shunga o'xshash manbalar asosida ishlab chiqilgan.

avtomatlashtirish instituti, Moskva, Novosibirsk, Orlov, Qozon, Samara, Sterlitamak davlat universitetlari); aralash va aralash qo'shma tipdagi tenglamalar uchun chegaraviy masalalarni yechish usuli ishlab chiqildi (Rossiya FA Sibir bo'limi Matematika instituti, Rossiya FA Kabardin-Bolqor ilmiy markazining Amaliy matematika va avtomatlashtirish instituti); elliptiko-giperbolik va parabolo-giperbolik tenglamalar uchun chegaraviy masalalarni o'rganish usullari topildi (Rossiya FA Sibir bo'limi Matematika instituti, Rossiya FA Kabardin-Bolqor ilmiy markazining Amaliy matematika va avtomatlashtirish instituti, Qozog'iston matematika va matematik modellash instituti); to'rtta maxsus nuqtaga ega bo'lgan Fuks sinfiga qarashli ikkinchi tartibli chiziqli differensial tenglamasining umumiy yechimi topildi (Armaniston Milliy FA fizik tadqiqotlar instituti, Armaniston davlat pedagogika universiteti, Tomsk politexnika milliy tadqiqot universiteti, Moskva fizika-texnika instituti, Sank-Peterburg davlat universiteti).

Jahon amaliyotida hozirgi vaqtda ustuvor yo'nalishlarda, xususan, koeffitsientlarida maxsusligi bo'lgan differensial tenglamalarga va bunday tenglamalar uchun lokal va nolokal chegaraviy masalalarning regulyar yechimlarini topishda spektral analiz nazariyasini qo'llash bo'yicha bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Har xil tipdagi buziladigan differensial tenglamalar uchun, xususan singulyar koeffitsientli elliptik va aralash tipdagi tenglamalar uchun asosiy chegaraviy masalalarni qo'yish va tekshirish A.V.Bitsadze, R.Gilbert, M.M.Smironov, I.A.Kipriyanov, M.S.Salohiddinov, M.Mirsaburov, A.K.Urinov, B.Islamov va K.B.Sabitovlarning ishlarida batafsil bayon qilingan. Singulyar koeffitsientli ikki va ko'p o'lchovli xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun chegaraviy masalalar bilan M.N.Olevskiy, A.Weinstein, E.Young, D.W.Fox, E.I.Moiseev, M.S.Salohiddinov, N.R.Radjabov, I.A.Kipriyanov, M.B.Kapilevich, S.P.Pulkin, O.A.Marichev, M.E.Lerner, O.A.Repin, A.P.Soldatov, S.M.Sitnik, M.Mirsaburov, A.K.Urinov, B.Islomov, K.B.Sabitov, R.S.Xayrullin, A.Xasanov, Sh.T.Karimov va boshqalar shug'ullanishgan.

Nolokal shartli chegaraviy masala birinchi bo'lib 1956 yilda F.I.Frankl tomonidan Chaplugin tenglamasi uchun aralash sohada qo'yilgan va tadqiq qilingan. O'tgan yillar davomida xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun nolokal shartli chegaraviy masalalarni o'rganish bo'yicha ko'plab olimlar shug'ullandilar. Jumaladan, E.I.Moiseev, N.I.Ionkin, M.E.Lerner, O.A.Repin, Yu.K.Sabitova, A.A.Abashkin va boshqalar tomonidan salmoqli ilmiy natijalar olingan. Aralash tipdagi tenglamalar uchun masalalarni o'rganishga qiziqish F.I.Frankl ishidan keyin ortdi, bu yerda birinchi marta transtovush gaz dinamikasi masalalari ushbu tipdagi tenglamalarga keltirilishiga e'tibor qaratildi. Ma'lumki, aralash tipdagi tenglamalar uchun Dirixle masalasi har doim ham Adamar ma'nosida korrekt qo'yilmaydi. Lavrentev-Bitsadze tenglamasi uchun Dirixle masalasi nokorrekt qo'yilganligi A.V.Bitsadze tomonidan ko'rsatildi. Ushbu ishdan so'ng, Dirixle masalasi korrekt qo'yilgan aralash sohani topish muammosi

paydo bo'ldi. Agar aralash tipdagi tenglama giperbolik tipdagi tenglamani o'z ichiga olsa va sohaning giperbolik qismi to'rtburchakdan iborat bo'lsa, masalaning yechilishi uchun to'rtburchak tomonlarining o'lchamiga bog'liq bo'lgan shart paydo bo'ladi. Agar masala yechimga ega bo'lsa, u holda u hamma to'rtburchak uchun o'rinli bo'lmaydi. To'g'ri to'rtburchak va yarimpolesada aralash tipdagi tenglamalar uchun Dirixle masalasi ko'plab mualliflar tomonidan o'rganilgan. Masalan B.V.Shabat, N.N.Vaxaniya, J.R.Cannon, R.I.Soxadze, A.P.Soldatov, K.B.Sabitov, R.S.Xayrullin, M.M.Xachev va boshqalarning ishlarini qayd etib o'tish mumkin.

Ma'lumki, buziladigan va singulyar koeffitsientli elliptik tipdagi tenglamalar uchun tekislikda Dirixle masalasi har doim ham korrekt qo'yilmaydi. Dirixle masalasi nokorrekt qo'yilgan hollarda, M.V.Keldish "E masala" deb nomlangan masalani o'rganishni taklif qilgan. Bu masalada tenglama qaralayotgan soha chegarasining buzilish chizig'i (yoki singulyarlik chizig'i) bo'lgan qismida tenglama yechimining chegaralangan bo'lishi, qolgan qismida esa Dirixle shartlari berilishi talab qilinadi. Bu masalalar hozirgi paytda "Keldish masalasi" deb nom olgan. Ko'pgina tadqiqotlar tekislikdagi singulyar koeffitsientli elliptik va aralash tipdagi turli xil tenglamalar uchun chegaraviy masalalarning xos qiymatlari va xos funksiyalarini topishga bag'ishlangan. Ular orasida M.S.Salohiddinov va A.K.Urinov, E.I.Moiseev, S.M.Ponomarev, T.Sh.Kalmenov, K.B.Sabitov, N.V.Chiganova va boshqalar tomonidan olingan ilmiy natijalar katta salmoqqa ega. Hozirgi vaqtda singulyar koeffitsientli xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun spektral masalalarni o'rganishga kam sonli ishlar bag'ishlangan. Qayd etish kerakki, sharning qismlarida singulyar koeffitsientli elliptik tipdagi uch o'lchovli tenglamalar uchun spektral masalalarni o'rganishda buzilgan Goyn oddiy differensial tenglamasi hosil bo'ladi. Hozirgi vaqtda bu tenglama to'liq o'rganilmagan. Shu sababli, buzilgan Goyn tenglamasi va uch o'lchovli fazoda singulyar koeffitsientli elliptik tipdagi tenglamalar uchun xos qiymat masalalarini o'rganish dolzarb hisoblanadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Tadqiqot Farg'ona davlat universitetining Φ -4-59 «Ikkinchi tartibli chiziqli singulyar koeffitsientli xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun boshlang'ich va chegaraviy masalalar» ilmiy-tadqiqot rejasiga muvofiq bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi uch o'lchovli singulyar koeffitsientli elliptik va aralash tipdagi differensial tenglamalar uchun chegaraviy va spektral masalalarni yechishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

parallelepiped, yarim cheksiz parallelepiped va chorak silindrda uchta singulyar koeffitsientga ega bo'lgan uch o'lchovli elliptik tenglama uchun Dirixle, Keldish va Dirixle-Neyman masalalarining bir qiymatli yechilishini tadqiq qilish;

ikkita singulyar koeffitsientga ega bo'lgan uch o'lchovli elliptik tenglama uchun o'z-o'ziga qo'shma va o'z-o'ziga qo'shma bo'lmagan nolokal chegaraviy masalalar yechimini parallelepiped va yarim cheksiz parallelepipedda qurish;

parallelepiped va yarim cheksiz parallelepipedda uchta singulyar koeffitsientga ega bo'lgan uch o'lchovli aralash tipdagi tenglama uchun Dirixle va Keldish masalalari yechimining yagonaligi va mavjudligi haqidagi teoremlarni isbotlash;

chorak silindr va uchburchakli to'g'ri prizmadan tashkil topgan sohada uchta singulyar koeffitsientga ega bo'lgan uch o'lchovli aralash tipdagi tenglama uchun Triкоми va Triкоми-Neyman masalasini yechish;

buzilgan Goyn tenglamasining umumiy yechimini topish. Sharning qismlaridan iborat sohalarida ikkita va uchta singulyar koeffitsientga ega bo'lgan uch o'lchovli elliptik tipdagi tenglamalar uchun spektral masalalarini o'rganish.

Tadqiqotning ob'ekti singulyar koeffitsientli uch o'lchovli xususiy hosilali differensial tenglamalar hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti uch o'lchovli fazoda singulyar koeffitsientli xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun chegaraviy va spektral masalalardan iborat.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiyada matematik fizika, spektral analiz va maxsus funksiyalar nazariyasi usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

parallelepiped, yarim cheksiz parallelepiped va chorak silindrda uchta singulyar koeffitsientga ega bo'lgan uch o'lchovli elliptik tipdagi tenglama uchun Dirixle, Keldish va Dirixle-Neyman masalalarining bir qiymatli yechilishi isbotlangan;

parallelepiped va yarim cheksiz parallelepipedda ikkita singulyar koeffitsientga ega bo'lgan uch o'lchovli elliptik tenglama uchun o'z-o'ziga qo'shma va o'z-o'ziga qo'shma bo'lmagan nolokal chegaraviy masalalarning bir qiymatli yechilishi isbotlangan;

uchta singulyar koeffitsientga ega bo'lgan uch o'lchovli aralash tipdagi tenglama uchun parallelepiped va yarim cheksiz parallelepipedda Dirixle va Keldish masalalari hamda bu tenglama uchun chorak silindr va uchburchakli to'g'ri prizmadan tashkil topgan sohada Triкоми va Triкоми-Neyman masalalari bir qiymatli yechilgan;

sharning qismlarida ikkita va uchta singulyar koeffitsientlarga ega bo'lgan uch o'lchovli elliptik tipdagi tenglamalar uchun spektral masalalar tadqiq qilingan bo'lib, bunda masalalarning xos qiymatlari topilgan va topilgan xos qiymatlarga mos keladigan xos funksiyalar qurilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi singulyar koeffitsientli xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun chegaraviy masalalarning olingan yechimlaridan shu kabi matematik modellarga keltirilishi mumkin bo'lgan jarayonlarning sifat xususiyatlarini o'rganishda foydalanish imkoniyatidan iborat. Ushbu yechimlar o'rganilgan jarayonlar va hodisalarning xususiyatlarini, matematik modellarning xususiyatlarini yaxshiroq tushunishga imkon beradi, shuningdek, asipmtotik, taqribiy va sonli usullar uchun sinov holatlari sifatida foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi matematik fikrlashning qat'iyligi, xususiy hosilali differensial tenglamalar nazariyasining klassik usullaridan, spektral analiz va energiya integrallari usullaridan foydalanish, shuningdek

teoremlarning qat'iy va to'liq isboti bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot ishida olingan natijalar xususiy hosilali differensial tenglamalar nazariyasini va spektral analiz nazariyasini yanada rivojlantirishda foydalaniladi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati olingan ilmiy natijalardan singulyar koeffitsientli xususiy hosilali tenglamalarga keltiriladigan amaliy masalalarga tatbiq qilish va foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Uch o'lchovli fazoda singulyar koeffitsientli elliptik va aralash tipdagi differensial tenglamalar uchun chegaraviy va spektral masalalari bo'yicha olingan natijalar asosida:

singulyar koeffitsientli uch o'lchovli elliptik tenglama uchun o'z-o'ziga qo'shma va o'z-o'ziga qo'shma bo'lmagan nolokal chegaraviy masalalarning yechimlaridan FZVG-2020-0029 raqamli "Agrosanoat majmui tabiiy resurslarini geoeologik monitoring qilish uchun telekommunikatsiya tizimlarini axborot-tahliliy ta'minotini qurishning nazariy asoslarini ishlab chiqish" mavzusidagi xorijiy loyihada nolokal shartli chegaraviy masalalarni yechishda foydalanilgan (Belgorod davlat milliy tadqiqot universitetining 2021-yil 6-sentyabrdagi №O-2038-sonli ma'lumotnomasi, Rossiya Federatsiyasi). Ilmiy natijalarning qo'llanishi aralash tipdagi tenglamalar uchun nolokal shartli chegaraviy masalalarning yechimlarini sonli qayta ishlash hamda bu masalalarning matematik modellarni qurish imkonini bergan;

singulyar koeffitsientli elliptik va aralash tipdagi tenglamalar uchun lokal va nolokal chegaraviy masalalarning yechimidan AAAA-A19-119072290002-9 raqamli "Kamchatkaning tabiiy ofatlari - zilzilalar va vulqonlar otilishi" mavzusidagi xorijiy tadqiqot doirasida lokal va nolokal masalalarni bir qiymatli yechishda foydalanilgan (Kamchatka davlat universitetining 2021-yil 6-sentyabrdagi №456-01-sonli ma'lumotnomasi, Rossiya Federatsiyasi). Ilmiy natijalarning qo'llanilishi lokal va nolokal masalalarning yechilish mezonlarini topish va ularni amaliy masalalarda qo'llash imkonini bergan;

singulyar koeffitsientli elliptik va aralash tipdagi differensial tenglamalar uchun chegaraviy va spektral masalalarning yechimlaridan HIOKTP 122041800029-5 raqamli "Asosiy va aralash tipdagi tenglamalar uchun chegaraviy va boshqaruv masalalari hamda ularni taqsimlangan parametrlarga ega sistemalarni o'rganishda qo'llash" mavzusidagi xorijiy loyihada taqsimlangan parametrlar differensial tenglamalar uchun chegaraviy masalalarning yechimlarini topishda foydalanilgan (Kabardin-Bolqor ilmiy markazi qoshidagi Amaliy matematika va avtomatizatsiyalash institutining 2023-yil 30-oktyabrdagi №01-13/79-sonli ma'lumotnomasi, Rossiya Federatsiyasi). Ilmiy natijalarning qo'llanishi asosiy va aralash tipdagi buziladigan va yuklangan tenglamalar uchun lokal va nolokal masalalarning yechimini topish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya asosiy natijalari 20 ta xalqaro va 7 ta respublika anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 48 ta ilmiy ish chop qilingan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy

attestatsiyasi komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop qilish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 21 ta maqola, jumladan, 13 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda va 8 tasi respublika jurnallarida nashr qilingan.

Dissertatsiya tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan. Dissertatsiya hajmi 200 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, mavzu bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi va muammoning o'rganilganlik darajasi keltirilgan, tadqiqot maqsadi, vazifalari, ob'ekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“Uchta singulyar koeffitsientlarga ega bo'lgan uch o'lchovli elliptik tenglama uchun Dirixle, Keldish va Dirixle-Neyman chegaraviy masalalari”** deb nomlangan birinchi bobida uchta singulyar koeffitsientga ega bo'lgan uch o'lchovli elliptik tipdagi tenglama uchun Dirixle (D masala), Keldish (E masala) va Dirixle-Neyman (DN masala) chegaraviy masalalari qo'yilgan va tadqiq qilingan.

Birinchi bobning birinchi paragrafida chiziqli differensial operatorlar nazariyasi va spektral analizdan yordamchi ma'lumotlar keltirilgan.

Birinchi bobning ikkinchi paragrafida uchta singulyar koeffitsientga ega bo'lgan ushbu

$$L_{\alpha\beta\gamma}u \equiv u_{xx} + u_{yy} + u_{zz} + \frac{2\alpha}{x}u_x + \frac{2\beta}{y}u_y + \frac{2\gamma}{z}u_z = 0 \quad (1)$$

tenglama $\Omega_+ = \{(x, y, z) : x \in (0, a), y \in (0, b), z \in (0, c)\}$ parallelepipedda qaralgan, bu yerda $a, b, c \in R^+$, $R^+ = \{t \in R : t > 0\}$.

Ω_+ sohada (1) tenglama uchun α, β, γ parametrlarning sonlar o'qida joylashuviga qarab Dirixle, Keldish va Dirixle-Neyman chegaraviy masalalari qo'yilgan.

$\alpha, \beta, \gamma \in (-\infty, 1/2)$ bo'lganda quyidagi masala qaralgan:

D masala. Quyidagi shartlarni qanoatlantiruvchi $u(x, y, z)$ funksiya topilsin:

$$\begin{aligned} u(x, y, z) &\in C(\bar{\Omega}_+) \cap C_{x,y,z}^{2,2,2}(\Omega_+), \quad x^{2\alpha}u_x, z^{2\gamma}u_z \in C(\bar{\Omega}_+); \\ L_{\alpha\beta\gamma}u &= 0, \quad (x, y, z) \in \Omega_+; \\ u(0, y, z) &= 0, \quad u(a, y, z) = 0, \quad y \in [0, b], \quad z \in [0, c]; \\ u(x, 0, z) &= \psi_1(x, z), \quad u(x, b, z) = \psi_2(x, z), \quad x \in [0, a], \quad z \in [0, c]; \\ u(x, y, 0) &= 0, \quad u(x, y, c) = 0, \quad x \in [0, a], \quad y \in [0, b], \end{aligned} \quad (2)$$

bu yerda $\psi_1(x, z)$ va $\psi_2(x, z)$ – berilgan funksiyalar.

$\alpha, \beta, \gamma \in [1/2, +\infty)$ bo‘lganda quyidagi masala qaralgan:

E masala. Quyidagi xossalarga ega bo‘lgan

$$u(x, y, z) \in C(\bar{\Omega}_+ \setminus \Delta_{xyz}) \cap C_{x,y,z}^{2,2,2}(\Omega_+)$$

funksiya topilsin:

- 1) $x=0$, $y=0$ va $z=0$ tekisliklarda $u(x, y, z)$ funksiya chegaralangan;
- 2) $x=0$ va $z=0$ tekisliklarda $u_x, u_z \in C(\bar{\Omega}_+ \setminus \Delta_{xz})$ funksiyalar chegaralangan;
- 3) $u(x, y, z)$ funksiya (2) va

$$u(x, b, z) = \psi_2(x, z), \quad x \in [0, a], \quad z \in [0, c];$$

$$u(a, y, z) = 0, \quad y \in [0, b], \quad z \in [0, c]; \quad u(x, y, c) = 0, \quad x \in [0, a], \quad y \in [0, b] \quad (3)$$

shartlarni qanoatlantiradi, bu yerda $\Delta_{xyz} = \{(x, y, z) : xyz = 0\}$, $\Delta_{xz} = \{(x, z) : xz = 0\}$, $\psi_2(x, z)$ – berilgan funksiya.

$\alpha, \gamma \in (-1/2, +\infty)$, $\beta \in (-1/2, 1/2)$ bo‘lganda quyidagi masala qaralgan:

DN masala. (2), (3),

$$u(x, y, z) \in C(\bar{\Omega}_+) \cap C_{x,y,z}^{2,2,2}(\Omega_+), \quad x^{2\alpha}u_x, y^{2\beta}u_y, z^{2\gamma}u_z \in C(\bar{\Omega}_+);$$

$$\lim_{x \rightarrow 0} x^{2\alpha}u_x(x, y, z) = 0, \quad y \in (0, b), \quad z \in (0, c);$$

$$\lim_{y \rightarrow 0} y^{2\beta}u_y(x, y, z) = f_1(x, z), \quad x \in (0, a), \quad z \in (0, c),$$

$$u(x, b, z) = f_2(x, z), \quad x \in [0, a], \quad z \in [0, c],$$

$$\lim_{z \rightarrow 0} z^{2\gamma}u_z(x, y, z) = 0, \quad x \in (0, a), \quad y \in (0, b)$$

shartlarni qanoatlantiradigan $u(x, y, z)$ funksiya topilsin, bu yerda $f_1(x, z)$ va $f_2(x, z)$ – berilgan funksiyalar.

Bu paragrafda olingan asosiy natijalar quyidagi teoremlar ko‘rinishida shakllantirilgan.

1-teorema. Agar D, E va DN masalalarning yechimi mavjud bo‘lsa, u holda ular yagonadir.

2-teorema. Aytaylik, $\alpha, \gamma \in (0, 1/2)$, $\beta \in (-\infty, 1/2)$ bo‘lsin va $\psi_1(x, z)$, $\psi_2(x, z)$ funksiyalar quyidagi shartlarni qanoatlantirsin:

$$I. \psi_l(x, z) \in C_{x,z}^{5,5}(\bar{\Pi}), \quad l = \overline{1, 2}, \text{ bu yerda } \Pi = \{(x, z) : 0 < x < a, 0 < z < c\};$$

$$II. \frac{\partial^j}{\partial x^j} \psi_l(x, z) \Big|_{x=0} = 0, \quad \frac{\partial^j}{\partial x^j} \psi_l(x, z) \Big|_{x=a} = 0, \quad \frac{\partial^j}{\partial z^j} \psi_l(x, z) \Big|_{z=0} = 0,$$

$$\frac{\partial^j}{\partial z^j} \psi_l(x, z) \Big|_{z=c} = 0, \quad j = \overline{0, 4}.$$

U holda D masalaning yechimi mavjud va u

$$u(x, y, z) = \sum_{n=1}^{\infty} \sum_{m=1}^{\infty} X_n(x) Z_m(z) \omega_{nm}(y), \quad (4)$$

formula bilan aniqlanadi, bu yerda

$$X_n(x) = x^{1/2-\alpha} J_{1/2-\alpha}(\sigma_{\alpha n} x/a), \quad Z_m(z) = z^{1/2-\gamma} J_{1/2-\gamma}(\sigma_{\gamma m} z/c), \quad n, m \in N; \quad (5)$$

$J_l(x)$ - l tartibli birinchi tur Bessel funksiyasi,

$$\omega_{nm}(y) = P_{nm}(y) \psi_{2nm} + \left[\bar{K}_{1/2-\beta}(\sqrt{\lambda_{nm}} y) - P_{nm}(y) \bar{K}_{1/2-\beta}(\sqrt{\lambda_{nm}} b) \right] \psi_{1nm},$$

$$P_{nm}(y) = \left(\frac{y}{b} \right)^{1/2-\beta} \frac{I_{1/2-\beta}(\sqrt{\lambda_{nm}} y)}{I_{1/2-\beta}(\sqrt{\lambda_{nm}} b)}, \quad \bar{K}_{\nu}(x) = \frac{2^{1-\nu} x^{\nu} K_{\nu}(x)}{\Gamma(\nu)}, \quad \nu > 0; \quad I_l(x) \text{ va}$$

$K_l(x)$ - mos holda l tartibli, mavhum argumentli Bessel va Makdonald

$$\text{funksiyalari, } \psi_{lnm} = d_{nm} \int_0^c \int_0^a \psi_l(x, z) x^{2\alpha} X_n(x) z^{2\gamma} Z_m(z) dx dz, \quad l = \overline{1, 2},$$

$$d_{nm} = \left[\|X_n\|_{L_{2,\rho}(0,a)} \|Z_m\|_{L_{2,q}(0,c)} \right]^{-2},$$

$$\|X_n\|_{L_{2,\rho}(0,a)} = \left(\int_0^a \rho(x) X_n^2(x) dx \right)^{1/2} = |a J_{3/2-\alpha}(\sigma_{\alpha n})| / \sqrt{2}, \quad \rho(x) = x^{2\alpha},$$

$$\|Z_m\|_{L_{2,q}(0,c)} = \left(\int_0^c q(z) Z_m^2(z) dz \right)^{1/2} = |c J_{3/2-\gamma}(\sigma_{\gamma m})| / \sqrt{2}, \quad q(z) = z^{2\gamma},$$

$\sigma_{\alpha n}$ va $\sigma_{\gamma n}$ mos holda $J_{1/2-\alpha}(x)$ va $J_{1/2-\gamma}(x)$ funksiyalarning musbat nollari,

$$\lambda_{nm} = (\sigma_{\alpha n}/a)^2 + (\sigma_{\gamma m}/c)^2, \quad n, m \in N.$$

3-teorema. Aytaylik, $\alpha, \gamma \in (-k + 1/2, (-k + 3/2) \operatorname{sgn}(k-1)]$, $k \in N$, $\beta \in (-\infty, 1/2)$ bo'lsin va $\psi_1(x, z)$, $\psi_2(x, z)$ funksiyalar quyidagi shartlarni qanoatlantirsin:

$$\text{I. } \psi_l(x, z) \in C_{x,z}^{2k+4, 2k+4}(\bar{\Pi}), \quad l = \overline{1, 2}, \quad \text{bu yerda}$$

$$\Pi = \{(x, z): 0 < x < a, 0 < z < c\};$$

$$\text{II. } \frac{\partial^j}{\partial x^j} \psi_l(x, z) \Big|_{x=0} = 0, \quad \frac{\partial^j}{\partial x^j} \psi_l(x, z) \Big|_{x=a} = 0, \quad \frac{\partial^j}{\partial z^j} \psi_l(x, z) \Big|_{z=0} = 0,$$

$$\frac{\partial^j}{\partial z^j} \psi_l(x, z) \Big|_{z=c} = 0, \quad j = \overline{0, 2k+2};$$

U holda D masalaning yechimi (4) formula bilan aniqlanadi.

4-teorema. Aytaylik, $\alpha, \gamma \in [k - 1/2, k + 1/2)$, $k \in N$, $\beta \in [1/2, +\infty)$ bo'lsin va $\psi_2(x, z)$ funksiya quyidagi shartlarni qanoatlantirsin:

- I. $\psi_2(x, z) \in C_{x,z}^{2k+4, 2k+4}(\bar{\Pi})$, bu yerda $\Pi = \{(x, z): 0 < x < a, 0 < z < c\}$;
- II. $\frac{\partial^j}{\partial x^j} \psi_2(x, z)|_{x=0} = 0, \frac{\partial^j}{\partial x^j} \psi_2(x, z)|_{x=a} = 0, \frac{\partial^j}{\partial z^j} \psi_2(x, z)|_{z=0} = 0,$
 $\frac{\partial^j}{\partial z^j} \psi_2(x, z)|_{z=c} = 0, j = \overline{0, 2k+2}.$

U holda E masalaning yechimi mavjud va u

$$u(x, y, z) = \sum_{n=1}^{\infty} \sum_{m=1}^{\infty} X_n(x) Z_m(z) \mathcal{G}_{nm}(y),$$

formula bilan aniqlanadi, bu yerda $X_n(x), Z_m(z), \mathcal{G}_{nm}(y)$ funksiyalar

$$X_n(x) = x^{1/2-\alpha} J_{\alpha-1/2}(\delta_{\alpha n} x/a), Z_m(z) = z^{1/2-\gamma} J_{\gamma-1/2}(\delta_{\gamma m} z/c), n, m \in N, \quad (6)$$

$$\mathcal{G}_{nm}(y) = P_{1nm}(y) \psi_{2nm}, P_{1nm}(y) = (y/b)^{1/2-\beta} I_{\beta-1/2}(\sqrt{\lambda_{nm}} y) / I_{\beta-1/2}(\sqrt{\lambda_{nm}} b),$$

tengliklar bilan aniqlanadi,

$$\psi_{2nm} = s_{nm} \int_0^c \int_0^a \psi_2(x, z) x^{2\alpha} X_n(x) z^{2\gamma} Z_m(z) dx dz, \delta_{\alpha n} \text{ va } \delta_{\gamma m} \text{ mos holda}$$

$J_{\alpha-1/2}(x)$ va $J_{\gamma-1/2}(x)$ funksiyalarning musbat nollari,

$$\lambda_{nm} = (\delta_{\alpha n}/a)^2 + (\delta_{\gamma m}/c)^2, s_{nm} = \left[\|X_n\|_{L_{2,\xi}(0,a)} \|Z_m\|_{L_{2,\eta}(0,c)} \right]^{-2},$$

$$\|X_n\|_{L_{2,\xi}(0,a)} = \left(\int_0^a \xi(x) X_n^2(x) dx \right)^{1/2} = |a J_{\alpha+1/2}(\delta_{\alpha n})| / \sqrt{2}, \xi(x) = x^{2\alpha},$$

$$\|Z_m\|_{L_{2,\eta}(0,c)} = \left(\int_0^c \eta(z) Z_m^2(z) dz \right)^{1/2} = |c J_{\gamma+1/2}(\delta_{\gamma m})| / \sqrt{2}, \eta(z) = z^{2\gamma}.$$

5-teorema. Aytaylik, $\alpha, \gamma \in [(k-1/2)\text{sgn}(k), k+1/2), k=0,1,\dots,$
 $\beta \in (-1/2, 1/2)$ bo'lsin va $f_1(x, z), f_2(x, z)$ funksiyalar 4-teoremaning shartlarini qanoatlantirsin. U holda DN masalaning yechimi mavjud va u

$$u(x, y, z) = \sum_{n=1}^{\infty} \sum_{m=1}^{\infty} X_n(x) Z_m(z) \mathcal{G}_{nm}(y), \quad (7)$$

formula bilan aniqlanadi, bu yerda $X_n(x), Z_m(z)$ – funksiyalar (6) tenglik bilan aniqlanadi,

$$\mathcal{G}_{nm}(y) = P_{1nm}(y) [f_{2nm} + P_{2nm}(b) f_{1nm}] - P_{2nm}(y) f_{1nm},$$

$$P_{1nm}(y) = (y/b)^{1/2-\beta} I_{\beta-1/2}(\sqrt{\lambda_{nm}} y) / I_{\beta-1/2}(\sqrt{\lambda_{nm}} b),$$

$$P_{2nm}(y) = (2y/\sqrt{\lambda_{nm}})^{1/2-\beta} K_{\beta-1/2}(\sqrt{\lambda_{nm}} y) / \Gamma(1/2 + \beta),$$

$$f_{lnm} = s_{nm} \int_0^c \int_0^a f_l(x, z) x^{2\alpha} X_n(x) z^{2\gamma} Z_m(z) dx dz, \quad l = 1, 2,$$

$$s_{nm} = \left[2 / (ac J_{\alpha+1/2}(\delta_{\alpha n}) J_{\gamma+1/2}(\delta_{\gamma m})) \right]^2.$$

6-teorema. Aytaylik, $\alpha, \gamma \in (-1/2, 0)$, $\beta \in (-1/2, 1/2)$ bo'lsin va $f_1(x, z)$, $f_2(x, z)$ funksiyalar quyidagi shartlarni qanoatlantirsin:

I. $f_l(x, z) \in C_{x,z}^{4,4}(\bar{\Pi})$, $l = \overline{1, 2}$, $j = \overline{0, 4}$, bu yerda

$$\Pi = \{(x, z) : 0 < x < a, 0 < z < c\};$$

II. $x^{2\alpha} \frac{\partial^j}{\partial x^j} f_l(x, z) \Big|_{x=0} = 0$, $j = \overline{1, 3}$; $\frac{\partial^j}{\partial x^j} f_l(x, z) \Big|_{x=a} = 0$, $j = \overline{0, 3}$, jumladan,

$f_{lxxx}(x, z)$ funksiyaning $x=0$ dagi nolining tartibi -2α dan kichik emas;

III. $z^{2\gamma} \frac{\partial^j}{\partial z^j} f_l(x, z) \Big|_{z=0} = 0$, $j = \overline{1, 3}$, $\frac{\partial^j}{\partial z^j} f_l(x, z) \Big|_{z=c} = 0$, $j = \overline{0, 3}$, jumladan,

$f_{lzzzz}(x, z)$ funksiyaning $z=0$ dagi nolining tartibi -2γ dan kichik emas;

U holda, DN masalaning yechimi mavjud va u (7) formula bilan aniqlanadi.

Birinchi bobning uchinchi paragrafda (1) tenglama uchun $\Omega_+^\infty = \{(x, y, z) : x \in (0, a), y \in (0, +\infty), z \in (0, c)\}$ yarim cheksiz parallelepipedda quyidagi chegaraviy masalalar qaralgan.

$\alpha, \beta, \gamma \in (-\infty, 1/2)$ bo'lganda quyidagi masala tadqiq qilingan:

D[∞] masala. Quyidagi shartlarni qanoatlantiruvchi $u(x, y, z)$ funksiya topilsin:

$$u(x, y, z) \in C(\bar{\Omega}_+^\infty) \cap C_{x,y,z}^{2,2,2}(\Omega_+^\infty), \quad x^{2\alpha} u_x, z^{2\gamma} u_z \in C(\bar{\Omega}_+^\infty);$$

$$L_{\alpha\beta\gamma} u = 0, \quad (x, y, z) \in \Omega_+^\infty; \quad (8)$$

$$u(0, y, z) = 0, \quad u(a, y, z) = 0, \quad y \in [0, +\infty), \quad z \in [0, c];$$

$$u(x, 0, z) = \psi_1(x, z), \quad x \in [0, a], \quad z \in [0, c];$$

$$\lim_{y \rightarrow \infty} u(x, y, z) = 0, \quad x \in [0, a], \quad z \in [0, c]; \quad (9)$$

$$u(x, y, 0) = 0, \quad u(x, y, c) = 0, \quad x \in [0, a], \quad y \in [0, +\infty),$$

bu yerda $\bar{\Omega}_+^\infty = \{(x, y, z) : x \in [0, a], y \in [0, \infty), z \in [0, c]\}$, $\psi_1(x, z)$ esa berilgan funksiya.

$\alpha, \beta, \gamma \in [1/2, +\infty)$ bo'lganda quyidagi masala tadqiq qilingan:

E[∞] masala. Quyidagi xossalarga ega bo'lgan $u(x, y, z) \in C(\bar{\Omega}_+^\infty \setminus \Delta_{xz}) \cap C_{x,y,z}^{2,2,2}(\Omega_+^\infty)$ funksiya topilsin:

1) $x=0$, $z=0$ tekisliklarda $u, u_x, u_z \in C(\bar{\Omega}_+^\infty \setminus \Delta_{xz})$ funksiyalar chegaralangan,

2) (8), (9), $u(a, y, z) = 0, y \in [0, +\infty), z \in [0, c], u(x, y, c) = 0, x \in [0, a], y \in [0, +\infty)$ va quyidagi

$$\lim_{y \rightarrow +0} y^{2\beta-1} u(x, y, z) = \chi(x, z), x \in [0, a], z \in [0, c] \text{ agar } \beta > 1/2 \text{ bo'lsa,}$$

$$\lim_{y \rightarrow +0} \frac{u(x, y, z)}{\ln y} = \chi(x, z), x \in [0, a], z \in [0, c] \text{ agar } \beta = 1/2 \text{ bo'lsa,}$$

shartlardan birini qanoatlantirsin, bu yerda $\Delta_{xz}^\infty = \{(x, y, z) : y \in [0, +\infty), xz = 0\}$, $\chi(x, z)$ – berilgan funksiya.

$\alpha, \gamma \in (-1/2, +\infty), \beta \in (-1/2, 1/2)$ bo'lganda quyidagi masala tadqiq qilingan:

DN[∞] masala. (8), (9) va quyidagi shartlarni qanoatlantiruvchi $u(x, y, z)$ funksiya topilsin:

$$\begin{aligned} u(x, y, z) &\in C(\bar{\Omega}_+^\infty) \cap C_{x,y,z}^{2,2,2}(\Omega_+^\infty), x^{2\alpha} u_x, y^{2\beta} u_y, z^{2\gamma} u_z \in C(\bar{\Omega}_+^\infty); \\ \lim_{x \rightarrow 0} x^{2\alpha} u_x(x, y, z) &= 0, y \in (0, \infty), z \in (0, c), u(a, y, z) = 0, y \in [0, +\infty), z \in [0, c]; \\ \lim_{y \rightarrow 0} y^{2\beta} u_y(x, y, z) &= v(x, z), x \in (0, a), z \in (0, c); \\ \lim_{z \rightarrow 0} z^{2\gamma} u_z(x, y, z) &= 0, x \in (0, a), y \in (0, \infty), u(x, y, c) = 0, x \in [0, a], y \in [0, +\infty), \end{aligned}$$

bu yerda $v(x, z)$ – berilgan funksiya.

Birinchi bobning to'rtinchi paragrafida

$$L_{\beta\gamma} U \equiv U_{xx} + U_{yy} + U_{zz} + \frac{2\beta}{x} U_x + \frac{2\beta}{y} U_y + \frac{2\gamma}{z} U_z = 0$$

tenglama uchun $\Sigma = \{(x, y, z) : x^2 + y^2 < 1, x > 0, y > 0, z \in (0, c)\}$ chorak silindrda Dirixle va Dirixle-Neyman masalalari tadqiq qilingan. Bu yerda ham β va γ parametrlarning qo'yilgan masalalar bir qiymatli yechilishi mumkin bo'lgan qiymatlari qaralgan.

Dissertatsiyaning “**Ikkita singulyar koeffitsientlarga ega bo'lgan uch o'lchovli elliptik tenglama uchun nolokal shartli chegaraviy masalalar**” deb nomlangan ikkinchi bobi $\Omega_+ = \{(x, y, z) : x \in (0, a), y \in (0, b), z \in (0, c)\}$ va $\Omega_+^\infty = \{(x, y, z) : x \in (0, a), y \in (0, +\infty), z \in (0, c)\}$, $a, b, c \in R^+$ sohalarda

$$L_{0\beta\gamma} u \equiv u_{xx} + u_{yy} + u_{zz} + \frac{2\beta}{y} u_y + \frac{2\gamma}{z} u_z = 0, \beta, \gamma \in (-\infty, 1/2) \quad (10)$$

tenglama uchun nolokal masalalarni o'rganishga bag'ishlangan.

2.1 masala. Ω_+ sohada (10) tenglamani va

$$u(x, y, z) \in C(\bar{\Omega}_+) \cap C_{x,y,z}^{2,2,2}(\Omega_+), u_x, z^{2\gamma} u_z \in C(\bar{\Omega}_+); \quad (11)$$

$$u(0, y, z) = u(a, y, z), u_x(0, y, z) = u_x(a, y, z), y \in [0, b], z \in [0, c]; \quad (12)$$

$$u(x, y, 0) = 0, u(x, y, c) = 0, x \in [0, a], y \in [0, b]; \quad (13)$$

$$u(x, 0, z) = \tau_1(x, z), \quad x \in [0, a], \quad z \in [0, c]; \quad (14)$$

$$u(x, b, z) = \tau_2(x, z), \quad x \in [0, a], \quad z \in [0, c], \quad (15)$$

shartlarni qanoatlantiruvchi $u(x, y, z)$ funksiya topilsin, bu yerda $\tau_1(x, z), \tau_2(x, z)$ – berilgan funksiyalar.

2.2 masala. Ω_+^∞ sohada (10) tenglamani va (12)-(14),

$$u(x, y, z) \in C(\bar{\Omega}_+^\infty) \cap C_{x,y,z}^{2,2,2}(\Omega_+^\infty), \quad u_x, z^{2\gamma} u_z \in C(\bar{\Omega}_+^\infty); \quad (16)$$

$$\lim_{y \rightarrow +\infty} u(x, y, z) = 0, \quad x \in [0, a], \quad z \in [0, c], \quad (17)$$

shartlarni qanoatlantiruvchi $u(x, y, z)$ funksiya topilsin, bu yerda $\bar{\Omega}_+^\infty = \{(x, y, z): x \in [0, a], y \in [0, +\infty), z \in [0, c]\}$.

2.3 masala. Ω_+ sohada (10) tenglamani va (11), (13)-(15), $u(0, y, z) = 0, y \in [0, b], z \in [0, c]$ chegaraviy shartlarni hamda

$$\int_0^a u(x, y, z) dx = 0, \quad y \in [0, b], \quad z \in [0, c]$$

nolokal integral shartni qanoatlantiruvchi $u(x, y, z)$ funksiya topilsin.

2.4 masala. Ω_+^∞ sohada (10) tenglamani va (16), (13), (14), (17),

$$u(0, y, z) = u(a, y, z), \quad u_x(0, y, z) = 0, \quad y \in [0, +\infty), \quad z \in [0, c]$$

shartlarni qanoatlantiruvchi $u(x, y, z)$ funksiya topilsin.

2.5 masala. Ω_+^∞ sohada (10) tenglamani va (16), (13), (14), (17),

$$u_x(0, y, z) = u_x(a, y, z), \quad u(a, y, z) = 0, \quad y \in [0, +\infty), \quad z \in [0, c]$$

shartlarni qanoatlantiruvchi $u(x, y, z)$ funksiya topilsin.

Ta'kidlash lozimki, 2.2, 2.4, 2.5 masalalarni o'rganishda (12) va (13) shartlarda y o'zgaruvchi $[0, +\infty)$ oraliqda o'zgaradi. Yana qayd etib o'tish lozimki, 2.1 va 2.2 masalalar o'z-o'ziga qo'shma masalalar, 2.3, 2.4 va 2.5 masalalar esa o'z-o'ziga qo'shma bo'lmagan masalalar hisoblanadi.

2.1-2.5 masalalar bittadan ortiq yechimga ega emasli isbotlangan.

Quyidagi teoremlarning o'rinli ekanligi isbotlangan.

7-teorema. Aytaylik $\beta, \gamma \in (-\infty, 1/2)$ bo'lsin va $\tau_1(x, z), \tau_2(x, z)$ funksiyalar quyidagi shartlarni qanoatlantirsin:

I. $\tau_l(x, z) \in C_{x,z}^{4,5}(\bar{\Pi})$, $l = \overline{1, 2}$ agar $\gamma \in (0, 1/2)$ bo'lsa, $\tau_l(\varphi, z) \in C_{x,z}^{4,2k+4}(\bar{\Pi})$, $l = \overline{1, 2}$ agar $\gamma \in (-k + 1/2, (-k + 3/2)\text{sgn}(k - 1)]$, $k \in \mathbb{N}$ bo'lsa, bu yerda $\Pi = \{(x, z): x \in (0, a), z \in (0, c)\}$;

II. $(\partial^j / \partial x^j) \tau_l(x, z) \Big|_{x=0} = (\partial^j / \partial x^j) \tau_l(x, z) \Big|_{x=a}$, $l = \overline{1, 2}$, $j = \overline{0, 3}$;

III. $\left(\partial^j / \partial z^j\right) \tau_l(x, z) \Big|_{z=0} = 0, \left(\partial^j / \partial z^j\right) \tau_l(x, z) \Big|_{z=c} = 0, l = \overline{1, 2}$, bu yerda agar $\gamma \in (0, 1/2)$ bo'lsa $j = \overline{0, 4}$; agar $\gamma \in (-k + 1/2, (-k + 3/2)\text{sgn}(k - 1)]$, $k \in N$ bo'lsa, $j = \overline{0, 2k + 2}$. U holda 2.1 masalaning yechimi mavjud va u

$$u(x, y, z) = \sum_{n=0}^{\infty} \sum_{m=1}^{\infty} X_n(x) \omega_{nm}^{21}(y) Z_m(z),$$

formula bilan aniqlanadi, bu yerda

$$X_0(x) = \frac{1}{\sqrt{a}}, \quad X_{2n-1}(x) = \sqrt{\frac{2}{a}} \sin \frac{2\pi n x}{a}, \quad X_{2n}(x) = \sqrt{\frac{2}{a}} \cos \frac{2\pi n x}{a}, n \in N, \quad (18)$$

$$Z_m(z) = z^{1/2-\gamma} J_{1/2-\gamma}(\sigma_{\gamma m} z / c), m \in N, \quad (19)$$

$$\omega_{nm}^{21}(y) = P_{nm}(y) \tau_{2nm} + \left[\bar{K}_{1/2-\beta}(\sqrt{\lambda_{nm}} y) - P_{nm}(y) \bar{K}_{1/2-\beta}(\sqrt{\lambda_{nm}} b) \right] \tau_{1nm},$$

$$P_{nm}(y) = y^{1/2-\beta} I_{1/2-\beta}(\sqrt{\lambda_{nm}} y) / \left[b^{1/2-\beta} I_{1/2-\beta}(\sqrt{\lambda_{nm}} b) \right],$$

$$\tau_{lnm} = d_m \int_0^c \int_0^a \tau_l(x, z) X_n(x) z^{2\gamma} Z_m(z) dx dz, l = \overline{1, 2}, d_m = 2 / \left[c J_{3/2-\gamma}(\sigma_{\gamma m}) \right]^2, \quad (20)$$

$\sigma_{\gamma m} - J_{1/2-\gamma}(x)$ funksiyaning musbat nollari, $\lambda_{nm} = (2\pi n / a)^2 + (\sigma_{\gamma m} / c)^2$, $n+1, m \in N$.

8-teorema. Agar $\beta, \gamma \in (-\infty, 1/2)$ va $\tau_1(x, z)$ funksiya 7-teoremaning shartlarini $l = 1$ bo'lganda qanoatlantirsa, u holda 2.2 masalaning yechimi mavjud va u

$$u(x, y, z) = \sum_{n=0}^{\infty} \sum_{m=1}^{\infty} X_n(x) Z_m(z) \bar{K}_{1/2-\beta}(\sqrt{\lambda_{nm}} y) \tau_{1nm},$$

formula bilan aniqlanadi, bu yerda $X_n(x)$, $Z_m(z)$ va τ_{1nm}, d_m lar mos holda (18), (19) va (20) tengliklar bilan aniqlanadi.

9-teorema. Aytaylik, $\beta, \gamma \in (-\infty, 1/2)$ bo'lsin va $\tau_1(x, z)$, $\tau_2(x, z)$ funksiyalar quyidagi shartlarni qanoatlantirsin:

I. $\tau_l(x, z) \in C_{x,z}^{4,5}(\bar{\Pi})$, $l = \overline{1, 2}$ bo'ladi, agar $\gamma \in (0, 1/2)$ bo'lsa, $\tau_l(x, z) \in C_{x,z}^{4,2k+4}(\bar{\Pi})$, $l = \overline{1, 2}$ bo'ladi, agar $\gamma \in (-k + 1/2, (-k + 3/2)\text{sgn}(k - 1)]$, $k \in N$ bo'lsa, bu yerda $\Pi = \{(x, z) : x \in (0, a), z \in (0, c)\}$;

II. $\left(\partial^j / \partial x^j\right) \tau_l(x, z) \Big|_{x=0} = 0, \left(\partial^j / \partial x^j\right) \tau_l(x, z) \Big|_{x=a} = 0, l = \overline{1, 2}, j = \overline{0, 3}$;

III. $\left(\partial^j / \partial z^j\right) \tau_l(x, z) \Big|_{z=0} = 0, \left(\partial^j / \partial z^j\right) \tau_l(x, z) \Big|_{z=c} = 0, l = \overline{1, 2}$, bu yerda agar $\gamma \in (0, 1/2)$ bo'lsa $j = \overline{0, 4}$ bo'ladi; agar $\gamma \in (-k + 1/2, (-k + 3/2)\text{sgn}(k - 1)]$ bo'lsa, $j = \overline{0, 2k + 2}$ bo'ladi.

U holda 2.3 masalaning yechimi mavjud bo'ladi.

10-teorema. Aytaylik, $\beta, \gamma \in (-\infty, 1/2)$ bo'lsin va $\tau_1(x, z)$ funksiya 9-teoremaning shartlarini $l=1$ bo'lganda qanoatlantirsa, u holda 2.4 va 2.5 masalalarning yechimlari mavjud bo'ladi.

Dissertatsiyaning “**Uchta singulyar koeffitsientlarga ega bo'lgan uch o'lchovli aralash tipdagi tenglama uchun chegaraviy masalalar**” nomli uchinchi bobida chegaralangan va yarim cheksiz parallelepipedda uchta singulyar koeffitsientli aralash tipdagi uch o'lchovli tenglama uchun Dirixle va Keldish masalalari tadqiq qilingan. Yana bu bobda elliptik qismi chorak silindrdan, giperbolik qismi esa uchburchakli to'g'ri prizmadan iborat sohada Trikomi va Trikomi-Neyman masalalari tadqiq qilingan.

Uchinchi bobning birinchi paragrafida α, β, γ parametrlarning qiymatlariga qarab, $\Omega = \{(x, y, z) : x \in (0, a), y \in (-b_0, b), z \in (0, c)\}$ sohada quyidagi

$$u_{xx} + (\operatorname{sgn} y)u_{yy} + u_{zz} + \frac{2\alpha}{x}u_x + \frac{2\beta}{|y|}u_y + \frac{2\gamma}{z}u_z = 0 \quad (21)$$

aralash tipdagi tenglama uchun D va E masalalar tadqiq qilingan, bu yerda $a, b_0, b, c \in \mathbb{R}^+$.

$\beta \in (0, 1/2)$, $\alpha, \gamma \in (-\infty, 1/2)$ bo'lganda quyidagi masala qaralgan:

D masala. $\Omega_+ \cup \Omega_-$ sohada (21) tenglamani va quyidagi shartlarni qanoatlantiruvchi $u(x, y, z)$ funksiya topilsin:

$$u(x, y, z) \in C(\bar{\Omega}) \cap C_{x,y,z}^{2,2,2}(\Omega_+ \cup \Omega_-), \quad x^{2\alpha}u_x, z^{2\gamma}u_z \in C(\bar{\Omega}); \quad (22)$$

$$u(0, y, z) = 0, \quad y \in [-b_0, b], \quad z \in [0, c]; \quad u(x, y, 0) = 0, \quad x \in [0, a], \quad y \in [-b_0, b]; \quad (23)$$

$$u(a, y, z) = 0, \quad y \in [-b_0, b], \quad z \in [0, c]; \quad u(x, y, c) = 0, \quad x \in [0, a], \quad y \in [-b_0, b]; \quad (24)$$

$$u(x, -b_0, z) = f_1(x, z); \quad u(x, b, z) = f_2(x, z), \quad x \in [0, a], \quad z \in [0, c]; \quad (25)$$

$$\lim_{y \rightarrow -0} (-y)^{2\beta} u_y(x, y, z) = \lim_{y \rightarrow +0} y^{2\beta} u_y(x, y, z), \quad x \in (0, a), \quad z \in (0, c), \quad (26)$$

bu yerda $\Omega_+ = \Omega \cap \{y > 0\}$, $\Omega_- = \Omega \cap \{y < 0\}$, $f_1(x, z), f_2(x, z)$ -berilgan funksiyalar.

$\beta \in (0, 1/2)$, $\alpha, \gamma \in [1/2, +\infty)$ bo'lganda quyidagi masala qaralgan:

E masala. $\Omega_+ \cup \Omega_-$ sohada (21) tenglamani va (24), (25), (26) shartlarni qanoatlantiruvchi hamda $x=0$ va $z=0$ tekisliklarda chegaralangan $u(x, y, z) \in C(\bar{\Omega} \setminus \Delta_{xz}) \cap C_{x,y,z}^{2,2,2}(\Omega_+ \cup \Omega_-)$ funksiya topilsin, bu yerda $\Delta_{xz} = \{(x, z) : xz = 0\}$.

D (E) masalalarni tadqiq qilishda quyidagi belgilashlardan foydalanilgan:

$$\Delta_{nm}(b_0, b) = I_{1/2-\beta}(\sqrt{\lambda_{nm}}b) \bar{Y}_{1/2-\beta}(\sqrt{\lambda_{nm}}b_0) + K_{1/2-\beta}(\sqrt{\lambda_{nm}}b) J_{1/2-\beta}(\sqrt{\lambda_{nm}}b_0),$$

bu yerda $\lambda_{nm} = (\sigma_{\alpha n}/a)^2 + (\sigma_{\gamma m}/c)^2$ ($\lambda_{nm} = (\delta_{\alpha n}/a)^2 + (\delta_{\gamma m}/c)^2$), $n, m \in N$, $\sigma_{\alpha n}$ va $\sigma_{\gamma m}$ ($\delta_{\alpha n}$ va $\delta_{\gamma m}$) lar mos holda $J_{1/2-\alpha}(x)$ va $J_{1/2-\gamma}(x)$ ($J_{\alpha-1/2}(x)$ va $J_{\gamma-1/2}(x)$) funksiyalarning musbat nollari,

$$\bar{Y}_{1/2-\beta} \left[\sqrt{\lambda_{nm}}(-y) \right] = \frac{\pi}{2 \cos \beta \pi} \left\{ J_{1/2-\beta} \left[\sqrt{\lambda_{nm}}(-y) \right] + J_{\beta-1/2} \left[\sqrt{\lambda_{nm}}(-y) \right] \right\}.$$

1-lemma. Aytaylik, agar b_0 – ixtiyoriy natural son yoki $b_0 = p/q$ – ixtiyoriy kasr son bo'lsin, bu yerda $(p, q) = 1$, $(4, q) = 1$, $p, q \in N$, jumladan $(n - \alpha/2)^2/a^2 + (m - \gamma/2)^2/c^2 \neq (d - 1/4)^2 q^2/p^2$, $d \in Z$, $\forall n, m \in N$ tengsizlik bajarilsa u holda shunday C_0 musbat son va n_0, m_0 natural sonlar mavjud bo'ladiki, barcha $n > n_0$ va $m > m_0$ natural sonlar uchun $|\Delta_{nm}(b_0, b)| \geq C_0 e^{\sqrt{\lambda_{nm}} b}$ tengsizlik o'rinli bo'ladi.

Bu paragrafning asosiy natijalari quyidagi teoremlardan iborat.

11-teorema. Agar D (E) masalaning yechimi mavjud bo'lib, barcha $n, m \in N$ uchun $\Delta_{nm}(b_0, b) \neq 0$ shart bajarilsa, u holda masala yechimi yagona bo'ladi.

12-teorema. Aytaylik, $\alpha, \gamma \in (-\infty, 1/2)$, $\beta \in (0, 1/2)$ va 1-lemmaning shartlari bajarilsin, hamda $f_1(x, z)$, $f_2(x, z)$ funksiyalar quyidagi shartlarni qanoatlantirsin:

- I. $f_l(x, z) \in C_{x,z}^{5,5}(\bar{\Pi})$, $l = \overline{1, 2}$, agar $\alpha, \gamma \in (0, 1/2)$ bo'lsa;
 $f_l(x, z) \in C_{x,z}^{2k+4, 2k+4}(\bar{\Pi})$, $l = \overline{1, 2}$, agar $\alpha, \gamma \in (-k + 1/2, (-k + 3/2) \operatorname{sgn}(k - 1)]$,
 $k \in N$ bo'lsa, bu yerda $\Pi = \{(x, z) : x \in (0, a), z \in (0, c)\}$;
- II. $(\partial^j / \partial x^j) f_l(x, z) \Big|_{x=0} = 0$, $(\partial^j / \partial x^j) f_l(x, z) \Big|_{x=a} = 0$, $(\partial^j / \partial z^j) f_l(x, z) \Big|_{z=0} = 0$,
 $(\partial^j / \partial z^j) f_l(x, z) \Big|_{z=c} = 0$, $l = \overline{1, 2}$ bu yerda agar $\alpha, \gamma \in (0, 1/2)$ bo'lsa, $j = \overline{0, 4}$;
 agar $\alpha, \gamma \in (-k + 1/2, (-k + 3/2) \operatorname{sgn}(k - 1)]$ bo'lsa, $j = \overline{0, 2k + 2}$.

U holda quyidagi tasdiqlar o'rinli:

1) agar barcha $n = 1, 2, \dots, n_0$, $m = 1, 2, \dots, m_0$ lar uchun $\Delta_{nm}(b_0, b) \neq 0$ bo'lsa, u holda D masalaning yagona yechimi mavjud bo'ladi;

2) agar ayrim $n = s_1, s_2, \dots, s_j \leq n_0$, $m = t_1, t_2, \dots, t_i \leq m_0$ larda $\Delta_{nm}(b_0, b) = 0$ bo'lsa, u holda D masalaning yechimi quyidagi

$$\begin{cases} f_{1lk} b^{1/2-\beta} I_{1/2-\beta}(\sqrt{\lambda_{lk}} b) + f_{2lk} b_0^{1/2-\beta} J_{1/2-\beta}(\sqrt{\lambda_{lk}} b_0) = 0, \\ f_{1lk} b^{1/2-\beta} I_{\beta-1/2}(\sqrt{\lambda_{lk}} b) - f_{2lk} b_0^{1/2-\beta} J_{\beta-1/2}(\sqrt{\lambda_{lk}} b_0) = 0, \end{cases}$$

